

## **BERDAQ ASARLARIDA XALQ DARDI, INSON QADRI TAMOYILLARINING O‘RNI**

**Sadriddinova Dilbar Bahridin qizi**

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti  
2-kurs 202-guruh talabasi

**Bosimov Boymurod Komil o‘g‘li**

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti  
2-kurs 209-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada qoraqalpoq shoiri Berdaq ijodida xalq dardi, inson qadri tamoyillarini aks etganligini yoshlar ongiga singdirishning tamoillari haqida mushohada yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Qoraqalpoq shoiri, Berdaq ijodi, asarlari, sahroning bulbul, kamtarlik, lirik she’rlari.

**Аннотация:** В данной научной статье мы проследим принципы внушения в сознание молодежи того, что в произведениях каракалпакского поэта Бердака отражены принципы народной боли и человеческого достоинства.

**Ключевые слова:** каракалпакский поэт, творчество Бердака, произведения, пустынный соловей, скромность, лирические стихи.

**Annotation:** In this scientific article, we will observe the principles of instilling in the minds of young people that the works of Karakalpak poet Berdak reflect the principles of people’s pain and human dignity.

**Key words:** Karakalpak poet, Berdak’s work, works, desert nightingale, modesty, lyrical poems.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganiga ya'ni yangi rivojlanish yo'liga kirganiga 31 yil o'tdi. Bu vaqt qisqa davrni o'z ichiga olsada, vatanimiz hayotining turli sohalarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shu nuqtaiy nazardan adabiyot sohasida ham katta islohat va o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Milliy ongni, milliy ruhiyatni mustahkamlashda, xususan tarixiy merosimizni, ajdodlarimizning hayoti va ijodini har tomonlama chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Berdaq qoraqalpoq xalqining ulug' shoiri. Uning asarlarining mazmuni juda yaxshi bayon etilgan. Uning poeziyasida qoraqalpoq xalqining butun bir asr ichidagi ijtimoiy-siyosiy turmushi haqida bayon etilgan. Berdaq asarlarining asosiy mavzusidagi qoraqalpoq xalqining quvonchi-yu g'am tashvishiga o'rtoq bo'lgan va shu haqida kuylagan “sahroning bulbuli” edi. Berdaq qoraqalpoq xalqining boshida siyosiy tengsizlik, zulmat har taraflama zulm, adolatsizlik hukm surgan davrda yashab ijodi qilgan va xalqini erkin turmush uchun kurashishga chaqiradi. Qoraqalpoq xalqining zabardas oliyjanob xalqparvar bo'lib kamolotga yetishda o'g'lonlarini ardoqladi, yoshlarni odobli, bilimli, mehnatsevar, kamtar bo'lishiga, ona vatani uchun joyini berishga undovchi g'oyalarni o'zining asarlari orqali chaqirgan shoir Berdumurod Qarg'abay o'g'li deb bilamiz. Xalq ishi uchun sadoqatli, sabrli, mard, botir, jasur bo'lishga, halol mehsatni sevishga, mehnatsevar bo'lishga chaqirigi uning quydagi sheridan ham bilishimiz mumkin.

#### BO'LGAN EMAS

*Bu dunyo-dunyo bo'lgali,  
Podshoh odil bo'lgan emas.  
Shoirlar qalam olgali,  
Xatga to'g'ri solgan emas.  
Inaqu bekning bolalari  
Har nega yetdi qo'llari,  
Qing'ir bo'lsa-da yo'llari  
Hech vaqt horib tolgan emas.  
Qoraqalpoq xalq bo'lgandan,*

*Bir xalq atog‘in olgandan,  
Haq taolo yo‘l solgandan  
Sira tenglik olgan emas.  
Qoraqalpoq xalqi bo‘lib,  
Qo‘shni o‘tirgan el kulib,  
Qanchalari yo‘lda o‘lib,  
Yuz yil qo‘nim bo‘lgan emas.*

Bu satrda shoir Berdaq o‘zidan avvalgi ko‘p shoirlarning podshohlarga qasidalar, madhiyalar yozish bilan ovora bo‘lganliklariga kinoya qiladi. U hurmatli onalarni, qadrlil kelinlarni, yosh qizlarni erkin bo‘lishini xohlab xotin qizlar ozodligi uchun kurashdi<sup>12</sup>. Berdaqning tili boy , uning tilini qoraqalpoq xalqi tushunarli edi. Berdaqning go‘zal, mayda qo‘shiqalaridan boshlab , yirik asarlarining mazmuni xalqning dardi va inson qadridan iboratdir. Shuning uchun qoraqalpoq xalqi Berdaqni sevadi va uning asarlarini jonini berib, katta qiziqish va hayajon bilan o‘qishadi. “Qoraqalpoq shoiri, xalqning kuychisi, hukumdorlarni keskin fosh etgan yuksak iste’dod sohibi, taraqqiyparvar mutafakkir, o‘z davrining ulug‘ insonlari, mohir so‘z ustasi Berdimurod Qarg‘abiy o‘g‘li Berdaq qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri xalq qalbida mangu yashaydi. Berdaq ijodi bilan men 1938 yilda Qoraqalpoqqa borganimda (u vaqtlar Qoraqalpog‘iston markazi To‘rtko‘l shahri edi) tanishgan edim. O‘shanda ardoqli olim va ulkan qalamkashlardan Asan og‘a bilan Najim og‘a menga Ajiniyoz va Berdaq asarlaridan yodaki o‘qib va Bo‘zatov qo‘shig‘ini aytib, hayron etdilar. Keyin men she‘rlarning yozma nusxalari bilan tanishdim. Men Ajiniyozdan va Berdaqdan tarjima qilib matbuotda e‘lon etganim yodimda”<sup>13</sup>.

Qoraqalpoq xalqining boy tarixiy merosini o‘zida mujassam etgan asarlari Qoraqalpoq xalqining adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan Berdaq o‘z asarlari orqali xalqni ozodlik uchun kurashga chorlagan, vatanining xalqining kelajagini o‘ylagan shoir sifatida Qoraqalpoq xalqi xotirasida mangu qoluvchi haqiqatni o‘zining she‘riyatida va dostonlarida mujassam etgan adib xisoblanadi. Shu o‘rinda davlatimiz

<sup>12</sup> Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimasini. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 9-bet. 1978 (tarj.)

<sup>13</sup> Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimasini. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978 (tarj.)

rahbari soʻzlari bilan yakunlashlikni lozim deb bildik: “Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini oʻqituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari boʻlgan bu moʻtabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom koʻrsatishimiz kerak” Sh.Mirziyoyev. Shu oʻrinda xulosa qilib aytganda, Berdaq oʻz asarlarida xalqning ogʻir hayoti, mehnatkash xalqning turli xil jabr-zulmga uchrashi va xalqning koʻchmanchi hayotini haqqoniy ravishda tasvirlab bera olgan kam sonli shoirlardan biri edi. Adib ijodini oʻrganar ekanmiz koʻplab qiziqarli badiiy obrizlarga duch kelar ekanmiz insonning ichki kechinmalarini hamda tashqi shakil shamoilidagi barcha xislatlarni mahorat bilan ochib bergan ijodkorlardan dek mubolagʻa qilmagan boʻlamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qoraqalpoq tilidan Mirtemir tarjimasi. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1-9-betlar. 1978 (tarj.)
2. Tanlangan asarlar /Qoraqalpoqchadan Mirtemir va Muzaffar Ahmad tarjimasi. – Nukus: «Ilim», 2018. 212-b.
3. Tanlangan asarlar, Nukus. 1956; Tanlangan sheʼrlar, T., 1958; Sheʼrlar, T.: 1976.
4. [https://teletype.in/@yosh\\_kitobxon\\_kitoblari\\_bot/IExCkbAtA](https://teletype.in/@yosh_kitobxon_kitoblari_bot/IExCkbAtA)
5. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)